



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI




SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI

*(2023-yilning yanvar-avgust
oylari uchun dastlabki
ma'lumot)*



Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 19 775,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,1 % ni tashkil etdi.

yanvar-avgust
mlrd. so'm






yanvar-avgust
FHI, %



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (16 262,6 ming. so'm) hamda Jomboy tumanida (10 764,0 ming. so'm) nisbatan yuqoriligini ko'rsatmoqda.





Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2023-yil yanvar-avgust oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 19 204,3 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,1 % ni, tashkil etdi.



2023-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (47,4 %), Jomboy tumani (10,1 %), Urgut (7,6 %), hamda Samarqand tumani (6,7 %), tumanlari hissasiga tog'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Bulung'ur tumanida (115,8 %), Oqdaryo tumanida (113,0 %) hamda Qo'shrabot tumanida (110,2 %) kuzatildi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2023-yil yanvar-avgust oylari

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oʻsishining asosiy omili boʻlib, Ishlab chiqarish 7,4 % ga hamda Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilishda 29,3 % ga, Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 14,5 % ga oʻsishi kuzatildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning 47,9 % ga pasayish kuzatildi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 214,3 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,8 % ni (2023-yilning yanvar-avgust oylarida 0,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali 16,0 % (14,2 %), o'rta-quyi texnologiyali 19,8 % (18,0 %) va quyi texnologiyalisi 59,4 % (64,3 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,6 % (2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 88,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi 10,5 % (2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 22,3 % (2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 118,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 39,1 % (2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-avgust	2023-yil yanvar-avgust	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	106,7	32,5	- 74,2
Paxta tolasi, ming t.	28,8	35,2	6,4
Tozalangan paxta yog'i tonna	10 226,0	13 171,3	2 945,3
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	251,0	201,2	- 49,8
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g. (buxanka), tonna	408,0	478,4	70,4
Uzum vinosi - ming litr	21,3	9,1	-12,2
Aroq – ming litr 100 % spirt	40,3	12,6	- 27,7

2023-yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), 478,4 tonna (2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 17,3 % ga ko'paygan), 32,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (69,6 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar-avgust oylarida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-avgust oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 1 746 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 37,3 % ga kamaygan.



2023-yil

1 746 dona

2023-yil

62,7 %

2022-yil

2 784 dona

2022-yil

97,1 %

2021-yil

2 866 dona


2021-yil

101,2 %

Avtobuslar ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar-avgust oylarida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-avgust oylarida 454 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,1 % ga kamaygan.



2023-yil

522 dona

2023-yil

73,2 %

2022-yil

713 dona

2022-yil

118,4 %

2021-yil


602 dona

2021-yil

121,1 %




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-avgust oylarida metallurgiya sanoati ulushi 11,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 143,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 10,5 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 104,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 075,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-avgust oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 4,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 95,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,6 % gacha ko'tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 88,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 703,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 27,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 104,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 29,3 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 115,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 5 796,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 113,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,2 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 120,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 230,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 17,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 83,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,4 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 118,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3 642,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kiyim ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-avgust oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 101,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 %, fizik hajm indeksi 114,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 566,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 76,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 146,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 247,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 160,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 %, fizik hajm indeksi 216,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 290,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 126,9 % .

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 51,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 225,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 123,2 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi 155,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 529,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 93,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 115,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 508,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 13,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 107,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,1 %, fizik hajm indeksi 75,9 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 1 994,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 211,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ni) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 52,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-avgust	2023-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	299 703,8	72 512,3	- 227 191,5
Issiqlik energiyasi, ming, gkal	4 275 113,0	3 389 987,0	- 885 126,0


(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %)



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 145,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-avgust	2023-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	25 482,5	34 940,1	9 457,6
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	66,4	75,6	9,2
Plastmassa chiqindilari, tonna	548,8	1 983,7	1 434,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar


Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm






* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 32,4 % shuningdek, Toyloq 13,7 %, Urgut 12,0 % ni hamda Samarqand tumanlarida 10,9 % ni tashkil etdi




■ mlrd. so'm o'sish sur'ati, %





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 612,0 ming so'm bo'lgan holda, Samarqand shahrida 3 752,4 ming so'mni, Toyloq tumanida 4 200,2 ming so'mni, Jomboy tumanida 3 137,3 ming so'mni va Samarqand tumanida 2 696,0 ming so'mni tashkil etdi.

yanvar-avgust
ming so'm




yanvar-avgust
o'sish sur'ati



■ ming so'm o'sish sur'ati, %

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6 671,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 105,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 33,7 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari




2023-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 3 457,7 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 7,2 % ga oshdi.

2022-yilning shu davriga nisbatan viloyat buyicha o'tacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Bulung'ur tumani (145,5 %), Oqdaryo tumani (141,4 %), Jomboy tumani (129,7 %) hamda Ishtixon tuman (125,6 %) korxonlari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 51,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 48,2 % ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmda oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 36,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 63,4 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2022-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 107,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 99,9 % ni tashkil etdi.





Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 38,9 % ni, shuningdek, tumanlardan Urgut 15,0 %, Toyloq 13,1 %, hamda Samarqand tumani 9,5 % ni tashkil etdi.





Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 26,4 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 13,8 % ni, Toyloq tumani esa 14,2 % ni tashkil etdi.

yanvar-avgust
mlrd. so'm



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

yanvar-avgust
o'sish sur'ati



■ mlrd. so'm o'sish sur'ati, %

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2023-yil 1-sentabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6 127 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 192 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 19,5 %) Samarqand shahriga, 843 tasi (13,8 %) Urgut tumaniga, 620 tasi (10,1 %) Samarqand tumaniga, 476 tasi (7,8 %) Pastdarg'om tumaniga va 361 tasi (5,9 %) Ishtixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

954 ta

2023-yil yanvar-avgust

1 196 ta

2022-yil yanvar-avgust

1 443 ta

2021-yil yanvar-avgust



Jami faoliyat yuritayotgan

6 127 ta


2023-yil 1-sentabr holatiga

8 576 ta

2022-yil 1-sentabr holatiga

8 060 ta


2021-yil 1-sentabr holatiga



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 8 812,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,6 % ni tashkil etdi.

yanvar-avgust
mlrd. soʻm



yanvar-avgust
ulushi %

